




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shıyǵ'armalarındag'ı ruхани yndestik pen ag'artushylyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

**XORAZM VILOYATI HAZORASP TUMANI SHEVASIDA KELISHIK
KATEGORIYASINING QO'LLANISHI**

**THE USE OF THE CASE CATEGORY IN THE DIALECT OF HAZORASP
DISTRICT, KHOREZM REGION**

Munira JUMANIYOZOVA,

Renessans ta'lim universiteti 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Saidova Farida Allayor qizi

Navoiy davlat universiteti doktoranti,

Renessans ta'lim universiteti dotsenti,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-7598-4185>

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HWUI3330

Annotation. *This article provides a theoretical and scientific analysis of the morphological features of the case category in the dialect of Hazorasp District, Khorezm Region. The study examines the use of case forms within the dialectal system of the Uzbek language, identifying their phonetic and morphological variants as well as their similarities to and differences from the standard literary language. Furthermore, the semantic functions and functional capacities of case suffixes in the dialect are explored, and their actual usage in speech is illustrated through examples. The findings of the research contribute to the enrichment of scholarly perspectives in the fields of Uzbek dialectology and morphology.*

Key words: *case category, dialect, Khorezm dialect, Hazorasp dialect, morphology, suffix, grammatical category, Uzbek literary language, dialectology, morphological variation.*

Kirish. O'zbek tili murakkab dialektal tuzilishga ega bo'lib, unda qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalari o'zaro uyg'unlashgan holda mavjud. Ushbu lahjalar ichida Xorazm hududida shakllangan o'g'uz lahjasi o'zining fonetik, leksik va ayniqsa morfologik xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Mazkur lahja tarixiy jihatdan qadimgi o'g'uz qabilalari tilining davomchisi sifatida shakllanib, bugungi kunda Xiva, Urganch, Xonqa, Shovot, Hazorasp kabi hududlarda keng qo'llanadi.

O'zbek xalq shevalari juda ko'p va xilma-xil bo'lib, ularning ayrim qismlarigina fonetik va grammatik jihatdan o'rganilgan. O'tgan asrlarda yaratilgan ilmiy asarlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan, F.Abdullayev "O'zbek tilining Xorazm she'valari", N.Rajabov "O'zbek she'vashunosligi", V.V.Reshetov "Тюркологический сборник" va boshqa olimlarning ilmiy ishlarini aytishimiz mumkin. Shu jumladan, F.Abdullayev Xorazm shevalariga oid namunalarni xalq orasidan, ko'chalarda yurib jonli she'valardan tuzgan. O'g'uz lahjasiga oid Xorazm shevalari ham yana bir qancha mayda sheva guruhlariga bo'lingan. Bunga turlicha sabablar bo'lishi mumkin. Ular bir-biridan nafaqat geografik joylashuv jihatidan, balki sheva tomondan ham birmuncha farq qiladi. Demak, shevalar umumiy bir lahja tarkibida birlashsa ham, fonetik, morfologik jihatlaridan turlicha bo'lishi mumkin. Na'muna qilib Urganch va Xiva hududlari shevalarini olishimiz mumkin. Professor E.D.Polivanov tasniflashicha, "o'g'uz lahjasi" o'z ichiga ikki guruh shevalarini olar ekan: 1. Janubiy Xorazm guruhi shevalari (Xiva, Urganch, G'azavot, Shovot, Xazorasp, Yangiariq, Xonqa kabi) kiritilgan. 2. Shimoliy o'g'uz guruhi shevalari (Iqon-Qorabuloq kabi) kiritilgan ekan.

bunga	binga
bunga	minga
unga	vunga
undan	vundan
ana shu	onoshu
mana shu	inashu
ana	ono
mana	ina
menga	monga
senga	songa

Og'zaki nutqda juda charchamoq ma'nosini bildiruvchi "Og'zini suvi oqdi" iborasi mavjud bo'lib, bu ibora o'zbek adabiy tilidagi "Holdan toymoq" iborasiga teng keladi. Shuningdek, ushbu iboraning Xorazm shevasida "Oyoqinnan o't chiqdi" sinonim iborasi ham uchray turadi. Bu iboraning birinchi iboradan deyarli farqi yo'q. Misol uchun, "to'y o'yda ish atavarip, oyoqimnon o't chiqdi" yoki "og'zimni suvi oqdi" birikmasini ham qo'llash mumkin.

O'zbek tilshunosligida kelishik kategoriyasi otning grammatik kategoriyalaridan biri sifatida keng o'rganilgan bo'lib, uning nazariy asoslari o'zbek adabiy tili grammatikasi doirasida mukammal ishlab chiqilgan (masalan, A. G'ulomov, Sh. Rahmatullayev, H. Jamolxonov va boshqalar). Adabiy tilda kelishiklar tizimi qat'iy normaga ega bo'lsa-da, dialektal nutqda bu kategoriyaning qo'llanishida sezilarli farqlar kuzatiladi. Xususan, kelishik qo'shimchalarining fonetik variantlari, qisqarish yoki orttirilish holatlari, semantik kengayish va funksional almashinuv kabi jarayonlar shevalarda faol namoyon bo'ladi.

Hazorasp tumani shevasi Xorazm shevalari tarkibida o'ziga xos o'rin egallab, unda kelishik kategoriyasining ifodalanishi adabiy til me'yorlaridan ma'lum darajada farqlanadi. Bu farqlar ayrim kelishik qo'shimchalarining fonetik shakllanishida, ularning qo'llanish chastotasida hamda sintaktik vazifalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois mazkur shevada kelishik kategoriyasini maxsus tadqiq etish o'zbek dialektologiyasi uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek adabiy tilida kelishiklar 6 ta bo'lib, ularning shakli va ma'no xususiyatlari prof. A. G'ulomovning "O'zbek tilida kelishiklar" asarida mufassal yoritilgan. O'zbek shevalarida kelishiklar turlicha: ba'zilarida oltita, ba'zilarida beshta, ba'zilarida to'rtta. Besh yoki to'rt kelishikli shevalarda ikki kelishik funksiyasini birgina affiks bajaradi. Masalan, Toshkent shevasida tushum va qaratqich kelishiklari unlidan so'ng -n' affiksi, undoshdan so'ng assimilyativ formalari bilan 19 xil shakl orqali ifodalanadi. Shuningdek, Qarshi shevasida tushum va qaratqich kelishiklari -n', -d'//-t' affiksi orqali, o'rin-payt va jo'nalish kelishiklari -ya, -ga//, -ka//, -qa affaksi orqali ifodalanadi.

Xorazm shevasida kelishiklarning qo'llanilishi quyidagicha:

O'g'uz guruh shevalarida (masalan, Hazorasp)		
Kelishiklar	Unidan so'ng	Undoshdan so'ng
B.k.	-	-
Q.k.	-ny//ni	-y//i
T.k.	-ny//nъ	-y//ъ
J.k.	-g'a// -g'ə// -yə// -nə	-a// -ə
O'-p.k.	-da// -də	-tə // -də
Ch.k.	-dan -dən	-tan// -dan// -nan// -nən

Ba'zi o'zbek shevalarida (masalan, Hazorasp) qaratqich kelishigi unlilardan so'ng: -ning -ning, undoshlardan so'ng: -ing, -ing tarzida ifodalanadi: *dashing, koping*:

Misollar:

Koping risqi kəl. Gyngələkning dilinə ənəsi chushinər. (Gungalak (soqov) ning tiliga onasi tushunadi). Gərək dashing ag'rami yoq. Si:nəməgən ating sirtinnən otmə.

Xorazm o'g'uz lahjasining Hazorasp shevasida tushum kelishigining ifodalanishi qaratqich kelishigiga o'xshash, ammo farqli xususiyatlari ham mavjud. Masalan, indifferent tovush undoshlardan so'ng faol hisoblanadi: *almanə, qapqaqə*.

Jo'nalish kelishigi Hazorasp shevasida unlilardan so'ng -g'a// -g'ə// -yə// -nə undoshlardan so'ng -a// -ə tarzida ifodalanadi: *balag'a, pərishtəyə, təmənə; qola, gəlinə*. Jo'nalish kelishigi Hazorasp shevasida Xorazm shevasining boshqa hududlariga nisbatan variantdoshi kam hisoblanadi. -ga, -gə variant deyarli ishlatilmaydi, -g'a varinatsi alohida [g'] tovushi talaffuz qili masdan uchraydigan holatlari ham mavjud. Masalan; kəsa:a. *Chəyə kəsa:a doldəbəp qyū*.

Misollar:

Jonima nashtar qadarlar nozanin yor ko'zlari,

Jona ofatu balodur jodu, xummor ko'zlari. (Oshiq Erkin)

Balag'a deyma janim, O'laman beqararim (qo'shiqdan)

Shuningdek, jo'nalish kelishigi *uchun* ko'makchisi bilan sinonim bo'lib kelishi hollari juda ko'p uchraydi. *Məktəpə gəyənəp gəldəm*. Ushbu gapda *məktəpə* so'zidagi -ə jo'nalish kelishigi *maktab uchun* so'zini ifodalash uchun xizmat qilyapti.

O'rin-payt kelishigi unlilardan so'ng kelganda so'zga -da// -də, undoshlardan so'ng kelganda -tə // -də holatida qo'shiladi: *Sy:da bələq bər ədə. Geshtə nəwə bə:*. Shuningdek, o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari oldidan kelgan 3-shaxs egalik qo'shimchasidan so'ng [n] tovushi ortishi kuzatiladi: *desh* (tashqari), *ich* (ichkari) kabi so'zlarda. *Deshəndə, ichəndə, jawəbənda*.

Chiqish kelishigi unli bilan tugagan so'zlarga -dan// -dən, undosh bilan tugagan so'zlarga -tan// -dan// -nan// -nən tarzida qo'shiladi: *Yrūəndən gəynək aldəm. Axshamnan vərən kəlləm ag'riydə*.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, Nodirabegim, 2021. – B. 43-46.
2. Enazarov T. Dialektologiya metodologiyasi (monografiya). – Toshkent, Innovatsiya-Ziyo, 2020. 38 b.
3. Enazarov T. O'zbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot – Toshkent, Mahalla va oila, 2021. 92-100-betlar.
4. O'zbek shevalari morfologiyasi. – Toshkent: Fan. 1984.
5. Xusainova Z.Y., Bekchanova M.O. Xorazm shevasidagi matnlarni o'zbek adabiy tiliga o'girish dasturini yaratishning amaliy ahamiyati // "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollari" V xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2025. – Vol. 1. – № 01. – B. 385-391.

